


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70420101–Advokatlik faoliyati magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*



Toshkent – 2024

**ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat yuridik universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “ 01 ” 08 dagi 277 sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>9</b>
<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>10</b>
<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>11</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70420101–Advokatlik faoliyati magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Ushbu magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistratura dasturining me‘yoriy muddati 1 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi:**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talablari 70420101–Advokatlik faoliyati magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talabalari, o‘quv reja va fanlar dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i (o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i), dekanlar, kafedra mudirlari va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligi o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkiloti talabalari;

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar byurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatning tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.**

70420101–Advokatlik faoliyati – “Huquq” ta‘lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlarida, sud, prokuratura, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarida, advokatlik tuzilmalarida, notariat idoralarida, tashqi iqtisodiy va siyosiy sohalardagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat idoralarida, xalqaro tashkilotlarda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida, shuningdek boshqa tijorat va notijorat tashkilotlarida yuridik faoliyat, oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik, ilmiy-pedagogik, boshqaruv faoliyatini yuritish, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari hamda mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar boshqa tashkilot, korxonalar va muassasalarida ilmiy-tadqiqot va boshqaruv faoliyatini yuritish sohasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari:**

Davlat boshqaruvi organlari;

Sudlar;

Prokuratura organlari;

Advokatlik tuzilmalari;

Notariat idoralarini;

Xalqaro tashkilotlar;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari;

Nodavlat-notijorat tashkilotlari;

oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

- pedagogik faoliyat;
- tizimli tahlil va ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv va strategik rejalashtirish;
- huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalar:**

70420101–Advokatlik faoliyati mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **pedagogik faoliyatda:**

mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘tkazish;

zamonaviy shakllarni joriy etgan holda amaliy mashg‘ulotlar hajmini (“keys-stadi”, ilmiy prezentatsiyalar, jamoada ishlash va boshq.), shuningdek magistrning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud, shu jumladan hakamlik sudi va mediatsiya tuzilmalari, ishlab chiqarish, ho‘jalik, tijorat korxonalari, moliya-bank hamda boshqa tashkilotlarda, shuningdek inson huquqlarini himoya qilish milliy va xalqaro tashkilotlari va tuzilmalarida malaka amaliyotini o‘tashi, oliy va o‘rta maxsus ta’limi tizimining ta’lim muassasalarida huquqqa oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy hamda masofaviy mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan‘anaviy usulda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

ma‘ruza matnlari va mashg‘ulotlarni o‘tkazish rejalarini tuzish;

yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash;

talabalar mustaqil ishini tashkiliy va o‘quv-metodik ta‘minlashni o‘rganish;

ta‘lim berishning zamonaviy hamda masofaviy shakllarini qo‘llash;

tarbiyaviy ishlarni o‘tkazish;

mustaqil ta‘lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish.

#### **tizimli tahlil va ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

kasb faoliyatining ko‘zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish, tizimli yondashish va tahlil etish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni qo‘llash;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

huquqiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tanqidiy tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

mutaxassislik bo‘yicha tadqiqot obyektlari va ularni tadqiq qilish metodikalarini o‘rganish;

tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, xulosalar tuzish, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;  
amaliy dasturlar va ma'lumotlar bazalarini tuzish;

kasbiy faoliyat sohasining ixtisosligiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot ishlarni o'rganish;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, ularni ekspertiza qilish, yuridik konfliktlarni hal qilishning huquqiy usul va vositalarini o'rganish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy tahlilni amalga oshirish va bibliografiyalarni tuzish;

o'z faoliyatida akademik halollik talablariga rioya etishi, o'zganing intellektual natijalarini o'zlashtirmaslik, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlariga qat'iy rioya etishi;

mutaxassislik ilmiy-metodik mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, holatini tahlil qilish;

fan bo'yicha o'quv maqsadlarini shakllantirish;

fan bo'yicha o'qitishning zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish va belgilash;

talabalar bilimini nazorat qilishga ko'maklashuvchi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

o'quv jarayonida hamda talabalarning o'quv ilmiy tadqiqotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish;

ilmiy-nazariy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash.

#### **tashkiliy-boshqaruv va strategik rejalashtirish faoliyatida:**

davlat boshqaruvi organlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarda huquqiy ishlarni yuritishni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan huquq doirasida foydalanish, iqtisodiy rejalashtirish, loyiha ishlarini huquqiy asoslarini ta'minlash;

davlat boshqaruvi organlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqaruv jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solish va rejalashtirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida tashkiliy-boshqaruv jarayonlarini huquq talablariga mosligini monitoring va nazorat qilishda ishtirok etish;

davlat qurilishi va boshqaruvi, sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, bozor islohotlarini chuqurlashtirishning huquqiy asoslarini rivojlantirishning dolzarb huquqiy muammolari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ushbu sohadagi xalqaro tajribani o'rganishi, ushbu sohaga “aqli boshqaruv” mexanizmlarini joriy qilish, sohani kelgusi rivojlanishi strategik rejalashtirish;

davlat hokimiyati va boshqaruv sohasiga “aqli tartibga solish” mexanizmlari va raqamli texnologiyalarni joriy qilish.

#### **huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatida:**

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash;

sohaga oid qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini yoki boshqa huquqiy hujjatlarni tayyorlash yoki tayyorlashda ishtirok etish, boshqa tuzilmalar tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlar loyihalarining qonunchilikka va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi yuzasidan huquqiy xulosalar tayyorlash;

davlat organi va nodavlat notijorat tashkilot, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqiy talablari va manfaatlarini sudlarda va boshqa tegishli davlat organlari va nodavlat tuzilmalarda himoya qilish uchun zarur huquqiy va boshqa hujjatlarni tayyorlash, nizoni ko'rish jarayonida ularni qo'llash;

jamoatchilik institutlari va fuqarolardan kelib tushadigan murojaatlarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi bo‘yicha choralar ko‘rish;

davlat organi va nodavlat notijorat tashkilot, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun qonunchilik masalalari bo‘yicha tahliliy materiallar tayyorlash.

## **2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.**

advokatlik faoliyatida huquqni qo‘llash faoliyatining dolzarb masalalari bilan bog‘liq ilmiy muammolar bo‘yicha vazifalarni belgilash va ularni hal etish, qarorlar qabul qilish, zarur bilimlar bazasini yaratish va undan o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

advokatura va advokat faoliyatiga oid dolzarb masalalar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borish va uning natijalarini tahlil qilish va amalga oshirishi, statistik ma‘lumotlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatida foydalana olishi;

o‘zlashtirilgan bilimlarni tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olishi;

kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatda foydalana olishi;

o‘quv jarayonini nazariy tayyorgarlikning huquqni qo‘llash faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, yangi bilimlarni mustaqil egallash va qo‘llashni ta‘minlaydigan o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishi;

fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati institutlari, inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish davlat va nodavlat tizimini kuchaytirish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy va boshqa manfaatlarini ta‘minlash, nizolarni sudgacha hal qilishning huquqiy asoslarini rivojlantirishning dolzarb huquqiy muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, ushbu sohadagi xalqaro tajribani o‘rganishi;

advokatlarning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan ilg‘or mamlakatlar qonunchilik bazasini o‘rganish va uni joriy etish istiqbollari tahlil qila olishi;

huquqni qo‘llash amaliyotiga, o‘quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etishni ta‘minlash;

mutaxassislik bo‘yicha nazariy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;

mutaxassislik bo‘yicha tanlangan mavzu doirasida chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshira olish;

huquq normalarini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud, shu jumladan, hakamlik sudi va mediatsiya tuzilmalari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va nodavlat notijorat tashkilotlar, xalqaro tashkilotlarning yuridik xizmatida qo‘llash;

sud protsessida qatnashish, muzokaralar olib borishni tashkil etish, mijozlar bilan suhbatlashish, yuridik maslahatlar, xulosalar berish va tahliliy ma‘lumotlar tayyorlash, yuridik audit o‘tkazish (due diligence);

protsessual va boshqa hujjatlarni tuzish;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonunchilik bazasini izchil o‘rganish;

huquq ijodkorligi faoliyatida, xususan, qonun loyihalari, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

nizoli masalalarga qonun normalarini to‘g‘ri qo‘llash **malakalariga ega bo‘lishi lozim.**

**3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Toshkent davlat yuridik universitetida magistratura bosqichida o‘qish davomiyligi muddati 1 yil bo‘lib, magistratura mutaxassisliklari uchun amaliyot belgilanmagan.



**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning mala-kaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>875</b>	<b>35</b>	
1.01	AAF1105	Advokatura va advokatlik faoliyati	125	5	1
1.02	IKNHE1205	Iqtisodiy va korporativ nizolarni hal etish	125	5	2
1.03	JPAI1205	Jinoyat protsessida advokat ishtiroki	125	5	2
1.04	FPAI1105	Fuqarolik protsessida advokat ishtiroki	125	5	1
1.05	HFO'ZPT1105	Huquqiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar	125	5	1
1.06	IHTM1105	Ilmiy (huquqiy) tadqiqot metodologiyasi va Legal Tech	125	5	1
1.07	YUSQQQ1205	Yuristlar uchun strategik qarorlar qabul qilish	125	5	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>250</b>	<b>10</b>	<b>1,2</b>
		<i>Tanlov fanlar</i>	250	10	1,2
Kvalifikatsiya		Yurist, pedagog-tadqiqotchi			
		<b>Jami</b>	<b>1125</b>	<b>45</b>	
		<b>Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash</b>	<b>375</b>	<b>15</b>	<b>2</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>1500</b>	<b>60</b>	

## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Advokatura, normativ-huquqiy hujjat, qonun, qonunchilik, odil sudlov, inson huquqlari, hakamlik sudi, mediatsiya, jamoatchilik instituti, protsess, huquqni qo'llash amaliyoti, qonunni sharhlash, modul, katus (muammoli vaziyat), huquqiy maslahat, ekspertiza, masofaviy ta'lim, kredit, nomutaxassislar uchun fanlar, yuridik xulosalar, tahliliy ma'lumotlar yozish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:**



Toshkent davlat yuridik universiteti

Rektor v.v.b. I. Rustambekov

2024-yil “ ”

**KELISHILDI:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy ta’limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi



Direktor M. Boltabayev

2024-yil “ ”

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi




Vazir  
o‘rinbosari Sh. Rabiye

2024-yil “ ”

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi  
Advokatlar palatasi



Rais  
o‘rinbosari A. Maxammadiyev

2024-yil “ ”

M.O‘.